

“QORAKO’Z MAJNUN” VA “UFQ” ASARLARIDA O’ZLIGINI YO’QOTGAN FARZAND OBRAZINING TASVIRLANISHI

Usarova Laylo Ibragimova

O’zbekiston –Finlandiya pedagogika instituti. O’zbek tili va Adabiyoti kafedrasi dotsenti.

Boboxonova Bibimaryam G’ulomsaxiyevna

*O’zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti. Filologiya fakulteti.
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotation

Mazkur maqolada Said Ahmadning asarlarida keltirilgan o’zbeklarga gina xos bo’lgan azaliy or-nomus va qadriyatlar haqida qisqacha ma’lumot berilib o’tiladi.

Kalit so’zlar: qadriyat , din, yengil tabiatllik, burch va nomus

Abstract

This article provides brief information about the ancient honor and costumes of Uzbek people, which are presented in the works of Said Ahmed.

Key words: value, religion, duty and honor, self-absorbed

Atoqli o’zbek yozuvchisi, dramaturgi Said Ahmad o’z asarlari bilan o’zbek adabiyotida yangilik ruhini olib kirgan adib hisoblanadi. Said Ahmadning har bir asari o’z voqealar rivoji bilan o’quvchini o’zigza jalg qila oladi. Yozuvchi o’z asarlarida Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G’ofur G’ulom yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi ixchamlikni mujassamlashtira olgan[3.1] deya ta’riflandi. Adibning “Ufq”, “Qorako’z Majnun” va shu kabi asarlari bunga yaqqol misoldir . Bu ikki asarlarda ham o’zbegona insoniy xisatlar ulug’lanadi.

“Qorako’z Majnun” asarini olaylik bu asar Said Ahmadning mustaqillik davrlarida yozilgan eng yaxshi hikoyalardan biri hisoblanadi. Hikoya voqeasi murakkab emas. Keksayib qolgan haqiqiy o’zbekning imonli onasi sifatida jonlantirilgan Saodat aya bir necha o’n yillardan beri harbiyga ketib o’sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo’lib ketgan yilda bir marotaba ham esga olmaydigan o’g’li Bo’rixonni kutadi. Xudoning bergen kuni sahar namozida uni eslaydi.

Saodat ayada chin muslima onalarga xos bu dunyosini ham u dunyosini ham o’ylashdek aql-zakovat mujassam

Saodat aya bomdod namozini o’qib, joynamoz poyida uzoq o’tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o’tib qolagan eri usta Turobga atab Qur’on tilovat qildi. O’g’li Bo’rixonga Xudodan insof tiladi qizi Qumriga ham baxt so’raydi. Saodat aya har sahar buni ichki eziklik bilan takrorlaydi.[1.88]

Qumri obrazi – yozuvchi bu obraz orqali qiz va ona o’rtasidagi nozik tuyg’ularni satirlarda jonlantirgan. Qumri biror joyda ishlab o’z hayotini qayta qursa bo’lardi Saodat aya esa shaharlik o’g’li yoki qiznikida yashasa bo’lardi biroq onaning ham qizni ham ko’zi qiymaydi. Bu esa o’zbek xalqigagina mos bo’lgan azaliy qadriyatlarimizning yorqin misolidir.

Onalar shunaqa baxti chopmagan bolasi bilan birga bo’ladi.[1.91]

Saodat aya kutgan kun ham keldi o’g’lining xabarini nevarasi olib keladi lekin bu xabarni qo’shni xotinlar oldida aytganda Saodat ayaning qaddi bukildi

Bolasi tushmagur-ey, qo’shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o’tiribdiya![1.92]

Adib kampirdagi bunday xolatni :

Birovga so’zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o’tirib qoldi .[1.92] deya tasvirlaydi.

Bo’rixon, bu asarning eng kulminatsion nuqtasida turuvchi obraz uning bir juvon uchun o’z dinidan kechgani asarning tuguni ham hisoblanadi. Balki bu voqelarda ota-onaning ham aybi bordir... Haddan ortiq erkinlikda va erkaklikda ulg’aygani ham sabab bo’lar. Bo’rixon va Saodat aya o’rtasidagi ona va farzand munosabatlari Said Ahmadning “Ufq” romanining “Qochoq” parchasida ham uchratishimiz mumkin. Asarda urush davrlari tasvirlangan va shu bilan birga adib o’zbek xalqi uchun azal-azaldan or-nomus va burch birinchi o’rinda turishini ham ko’rsatib o’tadi .

Said Ahnadning bu ikki asarini qiyoslar ekanmiz har ikkala asrda ham o’ta nozik va qaltis voqealar rivojiga duch kelamiz . Parchaning boshlanishi Ikromjonni orden olishi va xalqning izat-e’tiboriga tushishi bilan boshlanadi va shunaday quvonchli kuni motamdek mutxish kunga aylanishi...

... Baxtiyor odam hammani o’ziga o’xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayfiyatda edi. Yor-birodarlar oldida yuzi yorug’ bo’ldi. Vatani uchun qilgam xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi.[2.288]

Romanning bu satrlaridan ko’rishimiz mumkimki xalqimiz uchun eng qiyin davrlardan biri ya’ni Ikkinchiji jahon urush yillari tasvirlanadi. Bu davrlarda ham xalqimiz misilsiz fidoyilik va qahramonlik ko’rsatishgan. Ikromjon Usmonov ham xuddi shunday insonlardan biri edi.

Asarda Ikromjon frontdan bir oyog’idan ajralib qaytib keladi, va unga atalgan orden ham ko’p o’tmay orqasidan yetib kelgani aytilgan . Bu Ikromjon va xam qishloqlari uchun katta xursandchilik edi. Biroq xursandchilik uzoqqa cho’zilmaydi. Yakka-yu yagona o’g’li Tursunboy urushga ketayotib qochib ketadi, bu voqealardan bexabar ota-onsa xursandchilikdan sarmast edilar

Hali majlisda qandaydir yaramas bir bola to’g’risida gap bo’ldi. U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog’i va ota-onasini xijolatgaqo’ygan ...[2.288]

Lekin negadir Ikromjon bu gaplarga parvo ham qilmas edi. Shunday quvochli damda o'sha oriyatsiz bola o'zining o'g'li ekanligidan xabar topadi.

-... Dunyoning ishlari qiziq ekan-da, lekin Tog'a malades aytmadı. Aytganda Ikrom po'st tashlavorardi. Bitta-yu bitta bolasi qochoq bo'lib o'tirsa-ya. Voy, mening bolam shundoq qilsa, shartta kallasini uzib tashlardim...[2.89]

Bu gaplarni eshitgan Ikromjonning ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ko'rindi va qaddi bukildi. U ortiq suyunmas hattoki ko'kragidagi ordenga ham ortiq o'zini loyiq ko'rmasdi va ko'kragidan yilib otdi!

-Tog'a. Taqishga haqqim yo'q.[2.289]

Shu jumlalar orqali adib o'zligini anglab yetmagan farzand o'z otasini tushurgan holatini noziklik bilan tasvirlagan desak xato bo'lmaydi.

Ona. Jannat xolaning hali hech bir voqeadan xabari yo'q edi. Ikromjon amallab uyiga yetib keldi u paytda Jannat xola mehmonga o'g'li Tursunboyni og'zidan bol toma-toma maqtardi.

-Bolaginam, shundoq erka edi, shundoq erka edi, to maktabga borguncha ham dadasining yelkasidan tushmasdi...[2.290]

Xo'sh, endi bir o'ylay olaylik bolani bu holatga tushushi hali armiyaga yetmasda qiyinchilikni ko'rmasdan turib qochib ketishida kimning aybi katta, albatta, ota-onaning. Ular Tursunboyni kichikligidan erka, tantiq va hech qanday qiyinchilik ko'rsatmasdan o'stirishgan. Ular ham qayoqdan bilishsin bir kun kelib suyukli farzandlari vatan xoyiniga aylanishini.

Ona - baribir ona. Jannat xola bolasidan kecha olmaydi uni vatan xoyini ekanligini bilsada uni tashlab qo'ymadı. Ona to so'ngi kuniga qadar undan xabar oladi. Lekin Tursunboyga bularni ahamiyati yo'q edi hatto onasining tobutini ko'rib ham uning oldiga chiqmaydi. Uni yagona o'y o'ylantirar edi endi qayoqdan qornini to'ydradi, endi kim unga ovqat olib keladi. U uchun azob yegan onasini ortiq bu duyoda yo'qliga uni xayoling bir ko'chasiga ham kelmas edi.

"Qorako'z Majnun" asariga qaytsak hikoyaning boshida berilgan Qur'onining Baqara surasi va As'hobi kaxfning hikoyasi bejizga epigraf qilib berilmagan. Biri noshud bola hadida bo'lsa, ikkinchisi o'z farzandidanda yaqin bo'lgan it haqida

Jannatga kiradigan o'n hayvondan biri bu – "As'hobi kaxf"ning vafodor itdir.[1.88]

Qorako'z majnun ham xuddi shunday vafodor it edi. Saodat aya uni o'z oila a'zosidek qabul qilgan. Hattoki o'z qizidan ham himoya qilar edi

Qo'y urushma opasi, Qorako'z hali bolada![1.90]

Shu oddiy misralarda adib tasvirlagan eng pok va ezgu tug'ularni his qilishimiz mumki.

Vanihoyat Bo'rixon qaytib keladi. Saodat aya Bo'rixonning kelganida suyunadi. Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarni tarqalishi deya tasvirlanadi.

Biroq voqealar rivoji teskari tus oladi, bola end o'z onasining bag'riga begona edi. Ona uchun din-diyonat, milliy va diniy qadriyatlar har narsadan ustun turar edi, shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli sovuydi, ortiq uni namozlarida eslamay qo'ydi.

Asarda ona yillar davomida ko'z qorachig'iday asrab kelgan bolasining kiyimlarini yoqib yuboradi. Saodat aya suyukli farzandining kiyimlarini emas, baliki uning bolaligiga o't qo'ydi deya tasvirlangan. Saodat ayaning vafot etayotgan vaqt ham musulmonlaraga mos tarzda yoritib berilgan

Bunday din peshvosi bo'lган ayolning o'ziga mos bo'lмаган noqobil farzandi o'rнига adib farzandidanda yaqin va vafodor itni tasvirlagani bejiga emas.

Saodat aya ham Jannat xola ham adib tomonidan o'zbekning haqiqiy mehribon onasi timsolda jonlantirilgan. Lekin bu ikkala obrazlar bir-biridan tubdan farq qiladi, Jannat xola vatan xoyini bo'lган o'g'lidan kecholmadi onalik mehri ustunlik qildi. Saodat aya esa bir bolali juvon uchun o'z dini sotgan bolasaini qanchalik qiyin bo'lmasin yuradigan chiqarib tashladi

Bo'rixon va Tursunboy obrazlari bir-biriga qisman o'xshash hisoblanadi. Bo'rixon ham Tursunboy ham juda erka o'sgan, o'zligini anglab yetmagan farzandlar ko'rinishida tasvirlanadi.

Hikoyada Bo'rixonga yurtini mustaqillikka erishgani hech qanday ahamiyat kasb etmasligi aytib o'tilga chunki unga bu ona tuproq ham bu qir-adirlar ortiq unga yurt emas edi. Tursunboydek munofiq farzandga uning uchun o'z jonidan kechgan munis bir onasi ortiq bu dunyoda yo'qligi ham ahamiyatsiz edi.

Qorako'z majnun esa vafodor farzand, vafodor do'st obrazida jonlantirilgan. Hattaki o'z egasining o'limi ham unga shuqadar qattiq tasir qiladiki Saodat ayadan so'ng u ham uzoq yashay olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Qorako'z majnun" hikoyalar. "Ozbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2013.
2. "Ufq" trilogiya. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent, 2016.
3. "Ufqqa tutash tog'day jasorat" nomli xotira kechasi. Olim Ibrohim G'ofurov.